



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**

**YANGIQO'RG'ON TUMANI
XDTMFMTTEBga qarashli**

33-umumta'lim maktabi
Ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi **D.Tursunboyevaning**

**DARS
ISHLANMASI**

Dars mavzusi:

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyati.

Davlat ta'lim andozasi

O'quvchilar o'z fikrlarini ravon bayon etishlari kerak. Buyuk otabobolarimizning muzeylari va merosini o'rganishlari zarur.

Darsning maqsad va vazifalari va kutilayo'tgan narijalari :

- a) O'quvchilarga muzeydagi eksponatlar asosida tashkil qilingan sayohat dars vositasida Bobur hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar bilan tanishtirish, o'zlashtirish mustahkamlash. Bobur yashagan davr va ijtimoiy hayoti haqida to'laroq tasavvur hosil qilish.
- b) Oquvchilarni shaxs aktivligini tarbiyalash, do'stlik va axillik Vatanparvarlik, mahnatsevarlik, insoniylik ruhda tarbiyalash.
- d) O'quvchilarda deduktiv xulosa qilish, qobiliyatlarini umumlashtirish, intellektual bilimlarini oshurush. Mustaqil bilim olish va bilimlarini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin fikirlashga o'g'atish

Dars uchun zarur bo'lgan manbalar:

Muzeydagi ko'rgazmalar, internetdan olingan manbalar, daftar tarqatmalar.

Ushbu darsda o'rganiladigan yangi tushunchalar va atamalar

1. "Boburnoma"
2. "Xatti Boburiy"
3. "Mubayyan"
4. "Xarf ishi"
5. "Muhtasar"
6. "Devon"
7. "Musiqqa ilmi"

"Risolai Bolidkiya" asarlari ular haqida tushunchalar berib bo'rish.

Bosqichlar va vaqt ko'rsatilgan holda dars sxemasi.

Dars sxemasi quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi.

Darsning borishi

I.Tashkiliy davr

a)Bo'g'ga borib BoBur haykali oldida o'quvchilar bilan salomlashish.(2minut)

b)o'quvchilarni davomatini aniqlash va sinf jurnaliga belgilash.(2minut)

d)o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirib chiqishhamda guruhlariga bo'linish. (1minut)

II O'tilgan mavzuni so'rash

O'quvchilardan o'tgan mavzu nomi va bayonini so'rash.Hamda o'quvchilar o'rtasida o'tgan mavzu bo'yicha savol javob o'tkazish va baholash(15 minut)

III Yangi mavzu bayoni (20 minut)

IY.darsni mustahkamlash.savoljavob tarzda (4minut)

V.Uyga vazifa (1 minut)

Dars usuli: Noan'anaviy interfaol

Darsning borishi.

Tashkiliy ishlar:O'quvchilar bilan salomlashish , adabiyot haqida go'zala she'rlar.yurtimizda bo'layotgan muhim yangiliklardan voqib bo'lish. Zahiriddin Muhammad Boburni "Bog'i Bobur "dam olish maskanidagi muzeyiga uyushtiriladi. Muzeydagi katta xonalardan biri Boburga bag'ishlangan, boy materillar shoir va sarkarda , shoh Bobur haqida keng tasavvur hosil qilishga imkoniyat yaratiladi. **O'tilgan mavzular bo'yicha savollar**

1.Alisher Navoiy qachon qayerda tavallud topgan?

2.Navoiy necha yoshidan she'rlar yoza boshlagan?

3.Alisher 1483-yil qaysi asarini yozishga kirishgan?

4."Hamsa " qanday ma'noni anglatadi?

5.Navoiyning bolalikdagi do'sti kim?

6.U nechta g'azal yozgan?

7.Yana qanday tahallus bilan ijod qilgan?

8. Uning birinchi ustози kim bo'lgan?

9."Hamsa" nechta dostonni o'z ichiga olgan?

10.Navoiyning otasi kim edi?

11.Navoiy qayerga hokim bo'lgan?

12.Uning nomi hozirgi kunda qayerlarga berilgan? (5- minut)

Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilar bugungu darsimizda buyuk shoh va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti haqida so'zlab bermoqchiman.

Qirq yil choral go'rdan chiqmaydi Bobur

Chiqsa ham Hind bag'riga sig'maydi Bobur

Hindu quchog'da uhlaydi Bobur

Nega yig'lamaysan ahli Andijon!

Darhaqiqat shoirga atab yozgan Muhammad Yusufning ushbu she'rini yodimga olganimda ko'zinga yosh qalqiydi. Bobur Alisher Navoiydan keyingi O'zbek adabiyotida katta adabiy meros qoldirgan ulug'shoirlardan biri.

U 1483 –yil 14-fevrlarda Andijonda dunyoga kelgan.Una faqat talantli, balki shoir sifatida ,adolatli shoh tadbirkor sarkarda sifatida ham mashhurdir.U temuriylar avlodidan bo'lib ,Andijon hokimi Umarshay mirzoning o'g'li.Umrining katta qismini jangu-jadallarda o'tgan , Hindistonda katta imperiya yaratgan.Madaniy va obodonlashtirish ishlarida samaralihissa qo'shgan.Bir qator tarixiy ,badiy adabiyotshunoslikka oid xarbiy harakat sirlariga tegishli asarlar yaratgan.

8. "Boburnoma "

9. "Xatti Boburiy"

10. "Mubayyan"

11. "Xarf ishi"

12. "Muhtasar"

13. "Devon"

14. "Musiqi ilmi"

15. "Risolai Bolidkiya" lar sanaladi.

Boburning farzandlari (4 o'qil 3 qiz)

O'g'illari: Muhammad Xumoyin ,Kamron Mirzo,Mirzo Asqariy,Mirzo Xindol.

Qizlari: Gulrangbegim,Gulchehrabegim,Gulbadanbegim.

Muzey honasidagi jihozlari bilan tanishtirib, Bobur siymosi haqida so'zlab beraman.

S.Mirzayevlar tomonidan 1960-yilda nashr etilgan "Boburnoma" asari va unda aks ettirilgan tarixiy (1494-1520) yillar davri haqida so'zlab beraman. Bobur farg'ona, Andijon haqidagi tasviri haqida o'quvchilar ongiga sindiraman. Uning g'azallaridan, ruboiylaridan aytib beraman.






Ko'rgazmalarga qo'yilgan Bobur asarlari bilan tanishadilar va XIII asrda ko'chirilgan "Mubayyan" asari qo'lyozmalarini tanishtiraman.

Hind xalqining uig' farzandi katta davlatarbobi Javoharlar Neru, Bobur Mirzo va Boburiylarning Hindistondagi faoliyati haqida to'htalib Bobur – dilbar shaxs uyg'onish davrinintipik hukumdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni adabiyotni sevadi. Sayohatdan huzur qilishni hush ko'radi. Uning nabirasi Akbar mirzo dilbarroq bo'lib yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan – deya baho bergan edi.

Yaxshiroq mushohada qilib ko'raylik Bobur Mirzo xind eli uchun bosqinchi edi. Ludiylarning boburiylarga qarshi jangi vatanparvarlik tuyg'usini navbtdagi nishonasidir. Mirzoning buyukligi shundaki yana o'sha tuyg'u mohiyatini to'g'ri his qila oladi.

Bosqinchilik xirsini olovlantirib emas, balki sindira bordi. Jaholatga emas, ezgulikka zo'r berdi. Tag joy aholining milliy g'ururi, udm va e'tiqodiga mo'neylik qilmadi. Imkoni qadar vayronalikdan saqlanib, obodlik yo'lini kengaytirdi. Muhtasham obida bog'lar unyot etishni boshlab yubordi.

Uning oxrigi nafasi oldindan qilingan vasiyatida shu jihatlari tajassumni topgan edi. Boburona zakovat, u sepib ketgan yaxshilik urug'i besamara ketmadi. Javoharlar Neru bitib qolgan jumalari o'sha shirin hosilning nishonasidir.



Mustahkamlash: a)Boburning hayoti va ijodi bilan tanishish.

b)Uning qaysi asarida Farg'onani tasvirlagan.

d)Boburning avlodlarini yod oling.

s)g'azallaridan yod olish.

Uyga vazifa : “Muzeydan olgan ta'ssurotim “ mavzusida uy inshosi yozib kelish.

O'tkazilgan dars bo'yicha xulosa

Haqiqatdan ham o'quvchilar Z.M.Bobur haqida tushunchalarga ega bo'lishadi.Undan qolgan yodgorliklarni qaysi davrda qolganligini bilib olishadilar.Shu bilan birga Bobur avlodlari haqida tushunchalarga ega bo'lishadi.

O'quvchilar Boburning hayotiga chuqur kirib bordilar.bemalol bobokalonimiz haqida so'zlashib beradilar.Biz o'quvchilarga bu mavzu juda yoqdi, chunki o'zimiz mavzu yuzasida internet orqali ma'lumotlar topishga harakat qildik.